

**INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA ÓRGANISH: AHAMIYATI VA
AFZALLIKLARI**

Axmadova Rayhona Baxrilloevna
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: *Bilamizki, ingliz tili dunyo miqyosida muhim o'ringa ega bo'lgan til. Siz bu maqola orqali ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganishning ahamiyati, bu yolda siz duch keladigan ba'zi qiyinchiliklar va ingliz tilini o'zlashtirishingiz uchun yordam beradigan foydali metod va maslahatlar haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *metod, akademik dastur, asosiy til, sheva, podcast, artikl, BMT, sayt.*

Barchamizga ma'lumki, ingliz tili dunyo tan olgan til hisoblanadi. Hozirgi kunda 500 milliondan ortiq kishining asosiy tili ingliz tili va bu til 2-til sifatida 1milliard 300 millionga yaqin kishini ózida qamrab olgan. Bu yangi imkoniyatlar, aloqalar va yangidan-yangi qadriyatlar eshigining kalitidir. Va bu shundan dalolatki, ingliz tili dunyo bo'ylab muloqotni osonlashtirishda óziga xos ahamiyatga ega bo'lgan vosita vazifasini bajaradi. Va ma'lumot órnida aytish mumkinki, ingliz tili Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy ish yuritish tillaridan biridir.

Bugungi kunda, ingliz tili sizning biznesingiz va ta'limingiz rivojida asosiy mezonlardandir. Chunki ko'plab biznes va akademik dasturlar bu tilni biladigan insonlarni talab qilmoqda. Ingliz tili sizga dunyoning istalgan nuqtasiga bora olish imkonini beradi. Umuman olganda, bu til mamlakatlararo alohida ehtiromga sazovordir.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish hech ham oson bo'lmagan va endi bu tilni o'rganishda yuzaga keladigan ba'zi qiyinchiliklarga kelsak. Ingliz tili fonetik til emas va har bir so'z ham yozilganidek talaffuz qilinmaydi. Bunday so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun siz ma'lum bir so'zni bir vaqtda o'qib hamda tinglashingiz talab etiladi. Bundan tashqari, dunyo bo'ylab ingliz tilida sózlashuvchilar ko'p va bunga mos ravishda ingliz tili o'z hududiy shevalariga egadir. Ammo bizga shevaga xos ingliz tilini tushunish kerak emas. Biz standard normaga ega ingliz tilidan boshlashimiz lozim. Va shundan so'ng murakkabroq bosqichga o'tishimiz mumkin.

Ingliz tili o'rganish jarayonining samaradorlik darajasini oshirish usullari

1. Maqsadni munosib belgilash. Avvalambor, har bir ishni boshlashdan oldin bizda oldimizga qo'yadigan aniq va erishsa bo'ladigan maqsad bo'lishi lozim va biz buning amalga oshishi uchun vaqt orqali chegara belgilashimiz kerak. Bizda maqsadlarimizni har doim yodimizda turishini ta'minlaydigan ilovalar ham mavjud

bo'lishi kerak, ulardan biri bu "Dreamfora" ilovasi. Bu aynan shu maqsadda yaratilgan ilova hisoblanadi.

2. Odatga aylantirish. Biz ingliz tili bilan shug'ullanishni kun tartibimizning bir qismi sifatida ongimizda shakllantirishimiz kerak. Masalan, haftaning har dushanba kunini podcast ya'ni inglizcha eshittirish eshitish bilan boshlasak, seshanba kunini shu bajargan vazifamizda uchragan yangi so'zlarni tarjimasini o'rganish va ularni to'g'ri talaffuz qilishga bag'ishlashimiz kerak. Yanada aniqroq qilib aytganda, kunimizni to'g'ri taqsimlashni odat qilishimiz kerak.

3. Internet tarmog'i orqali ishonchli saytlardan foydalanish. Men bu orqali nima demoqchiman, har bir sayt yoki you tube videolarida keltirilgan ma'lumotlar ham ishonchli bo'lavermaydi. Shu sababli, men yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali bo'ladigan bir qator saytlarni sizlarga tavsiya qilmoqdaman.

✓ **"English speaking success"** – bu sayt orqali siz "native speaker" ya'ni asl ingliz o'tadigan, og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradigan video darslar bilan tanishishingiz mumkin.

✓ **"IELTS writing with Simon"** – bu sayt esa sizga IELTS imtihonida mavjud bo'lgan yozma qobiliyat ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

✓ **"FasTrack IELTS"** – sayti orqali siz tinglab tushunish qobiliyatingizni ma'lum bir darajagacha oshirishingiz mumkin.

✓ **"Adam's English lessons"** – bu sayt sizga o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun tavsiya qilinmoqda.

✓ Va albatta, umumiy ingliz tili va grammatikasini rivojlantirish uchun **"English with Lucy"** sayti har tomonlama samaralidir.

4. Takrorlash orqali mustahkamlash. Bilganimizdek, qanaqa til bo'lmasin uni takrorlashsiz o'rganib bo'lmaydi. Har kuni 10-15 ta yangi so'z yodlash mumkin ammo yodlagan so'zlarimizni 2kundan keyin eslay olmaymiz va bunda bizga doimiy takrorlash yordamga keladi. Doimiy takrorlashni amalga oshirishning bir samarali usuli bu flesh kartalardan (flashcards) foydalanish. Shaxsan men o'zim uchun yangi bo'lgan so'zlarni yozib olib, kompyuterim monitori atrofiga yopishtirib chiqqanman va bundan tashqari dars stolimga yaqin devorda ham shu usulni qo'llaganman va bu juda samarali.

5. Har doim muloqotni saqlash. Tilning asosiy vazifasi muloqotni osonlashtirishidir. Shuning uchun tilni yanada rivojlantirish uchun har doim muloqotda bo'lish kerak. Gapira olmaslikdan qo'rqmang. Hamma ham mukammal emas. Siz ideal deb bilgan inson ham boshida nimanidir bilmaslikdan qiynalgan bo'lishi mumkin. Shunday ekan, qo'rqmasdan turli xil "speaking club"larda ishtirok etishimiz lozim, xato gapirishdan hech qachon qo'rqmasligimiz kerak.

Til o'rganish uchun yaratilgan metodlar

- **Grammar translation method** – bu metod tarjima qilish orqali órgatiladigan metod. Bunda o'quvchilar o'z ona tilidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qilishlari kerak. Bu an'anaviy metodlar turiga kiradi.

- **Communicative language teaching** – bu hozirgi kunda mashhur bo'lgan ingliz tilini global miqyosda o'rgatadigan metod hisoblanadi. Bu metodda o'qituvchi o'quvchilarni turli xil, hayotda sodir bo'ladigan real holatlar qurshovida bo'lishini ta'minlaydi va o'quvchilar bu vaziyatda o'zlarining til bilish qobiliyatini namoyon qilishlari kerak bo'ladi. O'qituvchilar ularning ravon muloqotiga ko'proq e'tibor berishi talab etiladi.

- **Audio-lingual method**- bu metod ommaga 1950-yillarda tatbiq etilgan. Bu metod og'zaki mashg'ulotlardan iborat. Bu metod tatbiq etilganda shunday deyildiki, "chet tili o'rganuvchilar duch keladigan muammolarning aksariyatining boshlang'ich nuqtasi sifatida grammatika va struktura tushuniladi. Va shunday holatda audio-lingual metod talaffuzga tizimli e'tibor beradi." (Zimmerman 1997:10)

- **Learning in collaboration ya'ni hamkorlikda o'rganish** – umuman olganda, chet tilini o'rganish biror shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishni va vazifani bajarish uchun guruhlarga bo'linib , hamkorlikda ishlashni o'z ichiga oladi. Bu metodning mazmuni shundaki, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga shart- sharoit yaratish va ularning hamkorlikdagi faoliyatini rag'batlantirish.

So'nggi yillarda , CLT asosida til o'rganish yondashuvi keng tarqalmoqda. CLT- bu Communicative Language Teaching ya'ni kommunikativ tilni o'rgatishdir. Tarafdorlarning fikricha, bu yo'nalish gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmasini shakllantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Va eng asosiysi, bu o'quvchilarning o'zaro muloqot qilmasdan faqatgina o'qituvchining aktiv bo'lmagan dars o'tishini kuzatib turishiga to'sqinlik qiladi. Shunday ekan, biz ham har tomonlama yetuklikka erishishimiz uchun, yangi imkoniyatlar egasi bo'lishimiz uchun til o'rganishdan, yangi bilimlarni o'zlashtirishdan to'xtamasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalolov. J . "Chet tili o'qitish metodikasi " - T.1996.
2. Zimmerman.C.B. "Historical trends in second language vocabulary instruction" 1997.
3. Zubaydova.N.N. " English for business purposes " 2019.
4. Zubaydova.N.N "The teaching of English for specific purposes." 2019